



**O'ZBEKISTONDA RAQAMLI LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISHDA
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI
FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

39A-24 Logistika guruhi 1-bosqich talabasi

Mardonova Marjona Erdon qizi

marjonaerdonovna@gmail.com

Annotatsiya: *Hozirgi kunda har bir tarmoqdagi korxonalar raqamli texnologiyalarni o'zlashtirmoqda va o'zlarining modellarini yangi raqamli transformatsiya tendentsiyalari asosida qayta shakllantirmoqda. Kompaniyalar yangi jarayonlarni taklif qilishda davom etishyapti yoki mavjudlarini o'zgartiryapti. Bundan tashqari, yangi kompaniyalar madaniyatini yaratish, hatto iste'molchilarning o'zgaruvchan ehtiyojlari va bozor, mijozlar talablarini qondirish uchun mijozlar yangi tajribalarini joriy etishyapti. Xususan, Logistika va transport sohasidagi raqamli o'zgarish tarmoq kompaniyalariga yangi texnologiyalarning afzalliklaridan foydalanishga va doimiy ravishda kengayib borayotgan bozorda raqobatbardosh bo'lishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, logistika, raqamli texnologiyalar, raqamli transformatsiya, raqamli logistika, strategiya, raqobat.*

Kirish

Yaqin yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotni, ayniqsa transport va logistika sohalarini raqamlashtirishga alohida urg'u berilmoqda. Bu borada muhim hujjatlardan biri Prezident Sh.M. Mirziyoyevning "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirishga doir 6079-sonli farmonini alohida takidlash lozim. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot dunyo bo'ylab keng tarqalib, har bir mamlakatda o'zining ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish barcha sohalar, ayniqsa iqtisodiy tarmoqlar uchun zaruratga aylanmoqda. Raqamli transformatsiya — zamonaviy dunyo



rivojida asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylangan. Ayniqsa, raqamli logistikani yo'lga qo'yish orqali iqtisodiy jarayonlar samaradorligini oshirish, xarajatlarni qisqartirish va tezkorlikni ta'minlash mumkin. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha yaqin yillar davomida bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi. Masalan, 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bunga misol bo'la oladi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi asosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, transport-logistika tizimini zamonaviylashtirish va butun iqtisodiyotda innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, taraqqiyotining hozirgi bosqichida innovatsiyalar iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar va zamonaviy dasturiy ta'minot vositalari iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, xususan transport va logistika sohasini ham tubdan o'zgartirmoqda.

Globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotning uzluksiz rivojlanib borishi inson hayoti va ijtimoiy munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish jarayonlari modernizatsiyalashmoqda, iqtisodiy faoliyatning samaradorligi oshmoqda. Bu jarayonlar nafaqat ishlab chiqarish strategiyalarini, balki mamlakat iqtisodiy salohiyatini ham mustahkamlaydi. Ayniqsa, logistika sohasida raqamlashtirish natijasida moddiy va axborot oqimlarining harakati samaraliroq tashkil etilmoqda. Bugungi kunda xalqaro yuk tashish va ta'minot zanjirlarida raqamli, avtomatlashtirilgan tizimlar keng qo'llanilmoqda. Transport sohasi har doim iqtisodiy rivojlanish, madaniy almashinuv va xalqlar o'rtasidagi hamkorlikning muhim vositasi bo'lib kelgan. Qadim zamonlarda ham transport yo'nalishlari davlatlar iqtisodiyotining asosiy ustunlaridan biri hisoblangan. Bugungi raqamli davrda esa transport va logistika hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, mamlakatimizda hali-hanuz logistika tizimida bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, dasturiy ta'minot vositalarining to'liq joriy etilmaganligi, eski tizimlarning saqlanib qolganligi, ta'minot jarayonining optimal tashkil etilmagani, logistik kuzatuv tizimining yetarli



darajada rivojlanmagani — asosiy muammolar sirasiga kiradi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish va taklif etilayotgan yechimlar ushbu mavzuning asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Raqamli logistika va uning o'ziga xos xususiyatlari bugungi kunda xalqaro iqtisodchi-olimlar tomonidan faol o'rganilmoqda. Ular logistika tizimiga raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekistonlik olimlar ham bu borada muhim ilmiy fikrlar bildirgan bo'lsalar-da, aynan mamlakat miqyosida logistika va transportni rivojlantirish muammolari hali yetarli darajada o'rganilmagan. "Yangi O'zbekiston – yangi g'oyalar" tamoyili asosida barcha sohalarda tub islohotlar olib borilayotgan bir paytda logistika va transport tizimida ham innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur. Masalan, yuklarni yetkazib berishda zamonaviy aqlli texnologiyalar yordamida yuk holati, sifati, va yetkazib berish muddatini real vaqt rejimida nazorat qiluvchi yagona raqamli platformani yaratish orqali bu sohadagi ko'plab muammolarni bartaraf etish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar bugungi kunda har bir soha, ayniqsa transport va logistika tizimining barqaror va samarali faoliyat yuritishida muhim o'rin egallamoqda. Yangi texnologiyalarni logistika jarayonlariga keng tatbiq etish orqali yuklarning harakati ustidan to'liq nazoratni ta'minlash, ta'minot zanjirini optimallashtirish, transport xizmatlari sifatini oshirish mumkin. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki O'zbekistonning xalqaro logistika tizimidagi o'rnini mustahkamlaydi. Kelgusida ushbu sohani kompleks raqamlashtirish, ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy qilish orqali mamlakatimizda transport va logistika tizimini yangi bosqichga olib chiqish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Чекулаева, К. (2024). РОЛЬ УПРАВЛЕНИЯ КОРПОРАТИВНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В РАЗВИТИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. *Экономическое развитие и анализ*, 2(8), 448-457.



2. Ашурова, Н., Чекулаева, К., & Ачилов, М. (2025). АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА МОДЕЛЕЙ КСО: РОЛЬ БИЗНЕСА В ПРЕОДОЛЕНИИ ГЛОБАЛЬНЫХ КРИЗИСОВ. *Передовая экономика и педагогические технологии*, 2(1), 248-261.
3. Ашурова, Н., & Чекулаева, К. (2024). ОСНОВЫ МЕТОДОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ КОРПОРАТИВНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ. *Экономическое развитие и анализ*, 2(9), 234-242.
4. Ашурова, Н., & Чекулаева, К. (2024). РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. *Передовая экономика и педагогические технологии*, 1(1), 232-240.
5. Bakoev, K. N., & Chekulaeva, K. A. (2021). ECONOMETRIC ANALYSIS OF INDUSTRIAL PRODUCTION'S VARIANCE IN THE SECTION OF CITIES AND DISTRICTS OF THE NAVOI REGION. *Frontline Marketing, Management and Economics Journal*, 1(08), 7-14.
6. Бакоев, Х. Н., & Чекулаева, К. А. (2021). ДИСПЕРСИОННЫЙ АНАЛИЗ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА В РАЗРЕЗЕ ГОРОДАХ И РАЙОНАХ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ. In *ЭКОНОМИКА В ТЕОРИИ И НА ПРАКТИКЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ И СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ* (pp. 149-152).
7. Чекулаева, К. А. (2021). ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ГЕОЛОГО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ И РАЦИОНАЛЬНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ОСВОЕНИЯ МРАМОРНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ. *Universum: технические науки*, (12-2 (93)), 62-66.
8. Чекулаева, К. А. (2011). *Разработка организационно-экономического механизма рационального использования месторождений мрамора* (Doctoral dissertation, Московский государственный горный университет).
9. Чекулаева, К. А., & Эйрих, В. И. Экономика и управление на предприятии (по отраслям). *Экономика и управление*, 100, 87-90.



10. Rabbonaqlovich, C. S. (2020). Advantages and distinctive features of venture capital. *SAARJ Journal on Banking & Insurance Research*, 9(3), 17-22.
11. Rabbonaqlovich, C. S. (2022). VENTURE CAPITAL AS AN ECONOMIC CATEGORY. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(05), 83-87.
12. Rabbonaqlovich, C. S. (2021). The role of venture capital in the innovative development of a transformed economy. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1746-1752.
13. Rabbonaqlovich, C. S. (2024). VENCHUR KAPITALI SHAKLLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI. *Economics and Innovative Technologies*, 12(5), 22-33.
14. Chulliyev, S. (2024). INNOVATSION JARAYONLAR BILAN VENCHUR KAPITALI O 'RTASIDAGI BOG 'LIQLIK VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(5), 67-74.
15. Чуллийев, С. (2024). О 'ZBEKISTONDA INNOVATSION TADBIRKORLIK VA VENCHUR FONDLARINI QO 'LLAB-QUVVATLASHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI. *Economics and Innovative Technologies*, 12(3), 1-14.
16. Latipov, N., Komilova, N., Makhmudov, B., Berdiev, K., Moslemzadeh, M., Chulliyev, S., ... & Hamroyev, M. (2024). Econometric modeling and forecasting of environmental conditions of cities and population health problems: Case study of Navoi and Zarafshan cities. *Macedonian Journal of Ecology and Environment*, 26(2), 169-181.
17. Cho'lliyev, S. (2022). О 'ZBEKISTONDA TRANSFORMATSIYALASHAYOTGAN IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHIDA VENCHUR KAPITALNING O 'RNI. *Economics and Innovative Technologies*, 10(5), 297-306.
18. Chulliyev, S. R. (2021). VENCHUR KAPITALI IQTISODIYOTNI INNOVASION RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 596-602.



19. Чуллиев, С. Р. (2020). СОСТОЯНИЕ ВЕНЧУРНОЙ ИНВЕСТИЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ*, 67.
20. Чўллиев, С. Р. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА ВЕНЧУР КАПИТАЛИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(7), 543-547.
21. Чўллиев, С. Р. (2020). ИҚТИСОДИЁТНИ ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНТИРИШДА ВЕНЧУР КАПИТАЛИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ. *Иқтисодиётда инновация*, 4(3).
22. Чуллиев, С. Р. (2024, October). РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ВЕНЧУР КАПИТАЛИНИНГ РОЛИ. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 10, pp. 16-18).
23. Chulliyev Suhrob Rabbonaqlovich. (2024). The Significance of Venture Capital on the Digital Economy. *American Journal of Business Practice*, 1(7), 47–52. Retrieved from <https://semantjournals.org/index.php/AJBP/article/view/508>
24. Chulliyev Suhrob Rabbonaqlovich. (2024). Scientific-Theoretical Basis of Venture Capital. *American Journal of Business Practice*, 1(6), 46–51. Retrieved from <https://semantjournals.org/index.php/AJBP/article/view/252>
25. Чуллиев, С. (2024). ВЗАИМОСВЯЗЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ С ВЕНЧУРНЫМ КАПИТАЛОМ И ФАКТОРАМИ, ВЛИЯЮЩИМИ НА ИННОВАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ. *Экономическое развитие и анализ*, 2(5), 67-74.
26. Rashidov, M., & Toshimov, S. (2023). МИНТАҚАЛАРДА ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ВА КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ ЖОЙЛАШТИРИШ ЗАРУРИЯТИ. *Economics and Innovative Technologies*, 11(4), 175-186.
27. Rashidov, M., & Toshimov, S. (2023). МИНТАҚАЛАРДА ЭРКИН ИҚТИСОДИЙ ВА КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ ЖОЙЛАШТИРИШ ЗАРУРИЯТИ. *Economics and Innovative Technologies*, 11(4), 175-186.